

Tarixi



"Gidrologiya va gidrogeologiya" kafedra mudiri

Gidrologiya va gidrogeologiya kafedrasida dotsenti, PhD

Ro'ziyev Ilxom Maxmudovich

Тел./факс: (+998-71) 2370971, (+998-71) 2373879

E-mail: i.ruziyev@tiame.uz

Mazkur kafedra 1987 yili mustaqil "Gidrogeologiya" va "Gidrologiya va suv oqimlarini rostlash" kafedralarining qo'shilishidan tashkil etilgan. 1944 yilda "Gidrogeologiya" kafedrasida professor D.M. Kats raxbarligida tashkil etilgan. Kafedrada turli yillari professor D.M. Kats (1944-1958), dotsent M.M. Ivanitsin (1959-1970), O'zbekiston FA muxbir a'zosi professor N.A. Kenesarin (1971-1975), O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi professor S.SH. Mirzayev (1975-1979), dotsent X.I. Valiyev (1979-1980), dotsent G.U. Yusupov (1981-1987) kabi yirik olimlar rahbarlik qilishdi. Kafedraning ilmiy faoliyatida sezilarli jonlanish professor N.A. Kenesarin va professor S.SH. Mirzayev raxbarligida amalga oshirildi. Kafedraning ilmiy xulosalari amaliyotda o'z o'rnini topib, Respublikaning rivojlanishiga o'z hissasini qo'shdi. 1987 yili "Gidrogeologiya" va "Gidrologiya va suv oqimlarini rostlash" kafedralari birlashtirilib "Gidrologiya va gidrogeologiya" kafedrasida tashkil qilindi. Uning birinchi mudiri bo'lib G.U. Yusupov (1987-1988) ishladi. Kafedraga 1988-1995 yillari Beruniy nomidagi davlat mukofoti laureati professor S.M. Qosimov va 1995 yildan 2005 yilgacha dotsent G.U. Yusupov, 2005-2012 yillari dotsent D.Nazaraliyev, 2012 dotsent S.E. Nurjanov, 2012-2014 yillari A.M. Fatxulloyev, 2015-2020 yillari dotsent D.V. Nazaraliyev rahbarlik qildi. 2021-2023 yillari professor F.A. Gapparov rahbarlik qildi. Hozirgi kunda dotsent I.M. Ro'ziyev rahbarlik qilmoqda. Kafedrada 1999 yildan boshlab yuqori malakali bakalavrlar va 2009 yildan magistrlar tayyorlashga o'tildi. Natijada tahsil olinadigan fanlar tizimi ham ancha kengayib bormoqda. Kafedraning ilmiy-tadqiqot va ilmiy uslubiy ishlarini bajarishda oxirgi yillarda professorlar A.M. Fatxulloyev, F.A. Gapparov dotsentlar: G.U. Yusupov, S.M. Karimov, A.A. Akbarov, D.V. Nazaraliyev, S.E. Nurjanov, F.S. Kattaqulov, I.M. Ro'ziyev SH.B. Akmalovlar faol ishtirok etdilar. Bugungi kunga kelib kafedrada 60530800-Gidrologiya (daryo va suv omborlari gidrologiyasi) va 60812600-Meliorativ gidrogeologiya bakalavriat yo'nalishlari bo'yicha yetuk kadrlarni tayyorlab kelmoqda. Talabalarga yetuk bilim berishda kafedra katta ilmiy-pedagogik salohiyatga ega. Bugungi kunda kafedrada, professorlar: A.M. Fatxulloyev, F.A. Gapparov, dotsentlar: D.V. Nazaraliyev, S.E. Nurjanov, I.M. Ro'ziyev, SH.B. Akmalov, F.S. Kattaqulov, katta o'qituvchilar S.M. Qodirov., S.R. Mansurov F.A.Oxunov assistentlar:, G.U. Jumaboyeva, J.S. Hamroqulov, stajor o'qituvchilar Sh.G` .Nortayev, F.I. Ochildiyev, Sh.Sh.Yaxshiyev, Sh.Q.Shodiyev, B.Karabayeva, Z.X.Baxranovasamarali mehnat qilishmoqda. Davlat ta'lim standartining o'zgarishi munosabati bilan 2008 yildan kafedra tarkibiga "Suv omborlari gidrologiyasi" ta'lim yo'nalishi kiritildi va bir o'quv reja bo'yicha

mutaxassislar chiqarila boshlandi. 2012 yilga kelib bu soha bo'yicha yiliga 20-25 mutaxassis tayyorlandi. 2015 yilda kelib, ta'lim yo'nalishi bo'yicha mutaxassislarga bo'lgan talab qaytadan o'rganib chiqildi va O'zR OO'MTVning 2016 yil 11 fevraldagi 66-sonli va 2016 yil 1 martdagi 89-sonli buyruqlari asosida "Suv omborlari gidrologiyasi" ta'lim yo'nalishi Gidrologiya(suv omborlarida) ta'lim yo'nalishiga o'zgartirildi. Respublikada innovatsion ta'lim va texnologiyalar transferini qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish, ta'lim va ishlab chiqarishni uzviy bog'lash, oliy ta'lim muassasalari faoliyat yo'nalishlarini tubdan takomillashtirish, ularning xalqaro nufuzini oshirish, samarali boshqaruv tizimini tashkil etish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasida belgilangan vazifalar ijrosini izchil ta'minlash maqsadida, Davlat talim standartining o'zgarishi munosabati bilan Gidrologiya(suv omborlarida) talim yo'nalishi Gidrologiya (daryo va suv omborlari gidrologiyasi talim yo'nalishiga o'zgartirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, 2017-2021 yillarda yer osti suvlari zahiralardan oqilona foydalanishni nazorat qilish va hisobga olishni tartibga solish chora-tadbirlari tug'risida gi 2017 yil 4 mayda PQ-2954-sonli qaroriga binoan "Meliorativ gidrogeologiya" ta'lim yo'nalishi tashkil etildi. Kafedra jamoasi o'zining diqqat e'tiborini yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash bilan bir qatorda respublikamizda amalga oshirilayotgan islohatlarning asosi hisoblangan global iqlim o'zgarishi sharoitida suv resurslarini oqilona boshqarish, suv resurslaridan suv tejamkor texnologiyalar asosida foydalanish, sug'oriladigan erlarning eklogik-meliorativ xolatini yaxshilashning ilmiy-amaliy asoslarini ishlab chiqish,iqlimning global o'zgarishining salbiy oqibatlarini tadqiq etish va uni yumshatish bo'yicha katta xajmdagi ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishga, shuningdek talabalar o'rtasida yuksak darajada ma'naviy-ma'rifiy ishlarni bajarishga qaratgan. Kafedrani chet mamlakatlardagi va respublikamizdagi oliy o'quv yurtlarining turdosh kafedralari, shuningdek ishlab-chiqarish hamda ilmiy-loyihalash tashkilotlari bilan aloqalari mustahkamlanmoqda.

[Gidromelioratsiya fakulteti](#) [O'qitiladigan fanlar](#) [Ilmiy ishlar](#) [Tadqiqotchilar](#) [Hamkorlar](#) [Kafedra xodimlari](#) [To'garaklar](#) [Dars jadvali](#) [Aloqalar](#)